



EXPRESSION OF CHARACTER THROUGH SYNONYMS IN THE WORK OF JALOLIDDIN MANGUBERDI

Olimova Rukhshona

Navoi State University,

Department of Uzbek Language and Literature, 2nd year student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15524843>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 25th May 2025

Online: 26th May 2025

KEYWORDS

Synonym, emotional-expressiveness, dramatic work, character, stylistics, speech.

ABSTRACT

This article analyzes the expression of image and character through synonyms in the dramatic work of Maqsd Shaikhzoda "Jaloliddin Manguberdi". The function of emotional-expressive synonyms used in the author's language in creating character is analyzed linguistically and stylistically.

JALOLIDDIN MANGUBERDI ASARIDA SINONIMLAR ORQALI XARAKTER IFODASI

Olimova Ruxshona

Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15524843>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2025

Accepted: 25th May 2025

Online: 26th May 2025

KEYWORDS

Sinonim, emotsional-ekspressivlik, dramatik asar, xarakter, stilistika, nutq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, Maqsd Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramatik asarida sinonimlar orqali obraz va xarakter ifodasi tahlil etiladi. Muallif tilida qo'llangan emotsional-ekspressiv sinonimlarning xarakter yaratishdagi funksiyasi lingvistik va stilistik jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiy asarda obraz yaratishning muhim vositalaridan biri bu til vositalarining boy va rang-barang ishlatilishidir. Ayniqsa, sinonim birliklarning emotsional-ekspressiv imkoniyatlari muallifning estetik maqsadini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsd Shayxzoda o'zining "Jaloliddin Manguberdi" dramasida tarixiy obrazlarni jonlantirishda hamda xarakterlarni chuqurroq ochib berishda sinonimlardan mahorat bilan foydalanadi. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri obrazlar orqali hayotni aks ettirish, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlarni yoritishdan iboratdir. Bu jarayonda til vositalari, xususan, sinonimlar muhim rol o'ynaydi. Sinonimlar bir-biriga yaqin yoki bir xil ma'noni bildiruvchi, lekin shakli jihatidan farqlanuvchi so'zlardir. Ular badiiy matnda tilning boyligini, ifodaning nozik jihatlarini, obrazlarning xarakter xususiyatlarini aniq va ta'sirchan yetkazishga xizmat qiladi.



O'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratishda sinonimlarning uslubiy imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Ayniqsa, tarixiy dramalar va romanlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Hususan, Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" asarida bosh qahramon Jaloliddin obrazini yoritishda sinonimlar orqali uning xarakteri, ruhiy holati, qat'iyati, jasorati, murosasizligi va ichki ziddiyatlari chuqur aks ettirilgan. Ushbu maqolada asar matni tahlili asosida sinonimlarning xarakter ifodasidagi badiiy-estetik yuklamasi o'rganiladi.

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" asari tarixiy voqealarga asoslangan bo'lib, asar asosiy e'tiborni bosh qahramonning ichki dunyosi, maqsadi va xalq manfaatini himoya qilish yo'lidagi kurashiga qaratadi. Bu jarayonda muallif Jaloliddin obrazini yanada ishonarli, jonli va ta'sirli yaratish uchun sinonimlardan faol foydalanadi. Asarda sinonimlarning xarakter ifodasidagi o'rni "Jaloliddin Manguberdi" asari tarixiy voqealarga asoslangan bo'lsa-da, dramatik talqinda obrazlar shunchaki tarixiy faktlar bilan cheklanmaydi. Ular ichki kechinmalar, ruhiy kurashlar va irodaviy fazilatlar orqali ochiladi. Bu jarayonda sinonimlarning emotsional-ekspressiv yuklanishi muhim rol o'ynaydi. Masalan, Jaloliddinning nutqida ishlatilgan quyidagi sinonimlar unga xos irodaviy qat'iyatni ta'kidlaydi: "Men yengilmayman, bo'ysunmayman, cho'kmayman!" Bu yerda yengilmoq, bo'ysunmoq, cho'kmoq fe'llari bir-biriga yaqin ma'noda bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos emotsional yukka ega. Yengilmoq tashqi kuchga bardosh berolmaslik, bo'ysunmoq irodasini topshirish, cho'kmoq esa umidsizlik belgisi sifatida tasvirlangan.

Ularning ketma-ketligi Jaloliddinning mustahkam irodasini ifodalaydi. Shuningdek, Saljuqiylar obrazida sinonimlarning zid ma'nodagi qo'llanilishi orqali uning ikkiyuzlama xarakteri ochiladi: "U g'amxo'r emas, balki maqtanchoq, soxta, yolg'onchi odam." Bu jumlada maqtanchoq, soxta, yolg'onchi sifatlarining birikmasi Saljuqiylarning asl yuzini fosh etadi. Ushbu sinonimik qator nafaqat semantik kuch, balki keskin emotsional ta'sir bilan ham ajralib turadi. Sinonimlar orqali dramatik kuchaytirish Dramaturg tilida sinonimlar nafaqat obraz ifodasi, balki dramatik zo'riqlash paytlarida sahna ta'sirchanligini va kuchaytirishda ham xizmat qiladi.

Sinonimlar orqali qat'iyat ifodasi. Jaloliddinning qahramonlik, irodalilik, matonatilik, sobitqadamlik, jasorat kabi sifatleri ko'plab sinonimlar orqali ifodalangan. Masalan, "jasorat", "botirlik", "qo'rquv bilmaslik", "dushmandan tap tortmaslik", "dilbarlik", "shijoat" kabi sinonimlar bir-birini to'ldirgan holda obrazga rang-baranglik, ma'nodagi chuqurlik baxsh etadi. Bunday sinonimlar orasidagi nozik ma'no farqlari Jaloliddinning turli holatdagi ruhiy kechinmalarini aniqlik bilan ifodalaydi. Masalan, "jasorat" umumiy ifoda bo'lsa, "shijoat" qahramonning ichki olamida jo'shqinlik, harakatga tayyorlikni bildiradi, "botirlik" esa og'ir holatlarda ham ortga chekinmaslikni ta'kidlaydi. Shunday qilib, sinonimlar obrazning barqaror xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Sinonimlar orqali ruhiy ziddiyatlar ifodasi. Asarda Jaloliddin nafaqat dushmanga qarshi kurashadi, balki o'z ichki dunyosidagi ziddiyatlar bilan ham kurash olib boradi. "Ikkilanish", "shubha", "g'am", "iztirob", "qayg'u", "tashvish" kabi sinonimlar bu holatni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Bu so'zlar orqali qahramonning insoniy zaifliklari, hissiyati, o'z fikrlari bilan olishishi, ma'suliyat og'irligi ostida qolayotgan holatlari ochib beriladi. Sinonimlar turli kontekstdagi ruhiy ahvollarni tasvirlashda muallifga keng imkoniyat yaratadi. "G'am" va "qayg'u" so'zlari orasida farq bo'lib, birinchisi ichki hissiyot, ikkinchisi voqelikka bog'liq hissiy



holatni anglatadi. Bu holatlarni tafsilot bilan berish orqali Shayxzoda Jaloliddin obrazini ichki dramatismga boy qiladi.

Sinonimlar orqali nutqning badiiyligi va ekspressivligini ta'minlash. Sinonimlar faqat xarakterni yoritish uchun emas, balki matnning badiiy kuchini oshirish, nutqni ekspressiv qilish uchun ham xizmat qiladi. "Buyuk", "ulug'", "zeb", "mehrobiiy", "sarbast", "ozod", "hur" kabi sinonimlar nafaqat obraz, balki uning g'oyalari, orzulari, intilishlarini poetik tarzda ifodalaydi. Muallif tomonidan Jaloliddinning xalq ozodligi uchun kurashga da'vati yuqori pafosli, ruhlantiruvchi, hayajonli tarzda ifodalanadi. Bu nutqlarida ishlatilgan sinonimlar obrazning lisoniy portretini boyitadi va uni esda qolarli qiladi. "Ozodlik" so'ziga sinonim sifatida "hurriyat", "mustaqillik", "erkinlik" so'zlarining ishlatilishi xalqning qadriyatlar yo'lidagi kurashini yoritadi.

Sinonimlar orqali dramatik kuchayish va tahdidni ifodalash. Dramatik sahnalarda, ayniqsa, dushman bilan qarama-qarshilik paytlarida "xavf", "tahdid", "og'irlik", "bosim", "ofat", "dahshat" kabi sinonimlar obraz atrofidagi muhitni, tashqi kuchlar bosimini ifodalaydi. Bu nafaqat sahna dinamikasini oshiradi, balki obrazning qiyosli o'sish jarayonini ham ko'rsatadi. Qahramon tobora kuchliroq bosim ostida o'z xarakterini kuchaytiradi, har bir sinonim esa bu bosim darajasini ifodalashda alohida rol o'ynaydi.

Sinonimlar orqali xalqona til boyligining ifodasi. Asar tili milliylikka boy bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi unsurlari, maqollar, iboralar, sinonimik qatorlar keng qo'llangan. Bu til uslubi orqali Jaloliddin xalq vakili, xalq timsoli sifatida gavdalanadi. "Yurt", "el", "xalq", "vatan", "diyor" kabi so'zlar Jaloliddin nutqida sinonim sifatida takrorlanadi va bular uning xalqchilligi, elparvarligi, yurtga muhabbati timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi misol buni ko'rsatadi: "Xoinlar! Sotqinlar! Dushmanlar!" Ushbu emotsional chaqiriq faqatgina g'azab ifodasi emas, balki Jaloliddinning vatanparvarlik ruhini ham ifodalaydi. Xoin, sotqin, dushman semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning baravarlikda qo'llanishi dramatik kuch hosil qiladi. Shayxzoda bunday uslub orqali voqealarning urg'uli jihatlarini ko'rsatadi. Har bir sinonimning joyida va o'ziga xos kuch bilan qo'llanishi sahnadagi harakatning hissiy ohangini oshiradi. Sinonimlarning xarakterlararo qarama-qarshilikdagi roli Asarda ijobiy va salbiy qahramonlarning nutqiy portretini yaratishda ham sinonimlar asosiy rol o'ynaydi. Jaloliddin va Saljuqiy obrazlari orasidagi stilistik tafovut, aynan sinonimik vositalarning turlicha qo'llanishi orqali ham seziladi. Jaloliddin nutqi: "Men adolat, or-nomus, vatan degan muqaddas tushunchalar uchun kurashaman!" Saljuqiy nutqi: "Aql, hiyla, foyda – shular bilan yuriladi bu dunyoda." Bu yerda adolat, or-nomus, vatan kabi yuksak tushunchalar ijobiy xarakterga mansub sinonimlar orqali ifodalanayotgan bo'lsa, aql, hiyla, foyda esa salbiy xarakterdagi ekspressiv sinonimlar bilan ifodalangan.

Xulosa

Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi" dramasida sinonimlardan faqat tilni boyitish vositasi sifatida emas, balki xarakter ifodasining semantik va stilistik asosi sifatida foydalanadi. Qahramonlarning ruhiy holati, ularning jamiyatga va dushmanga munosabati, ichki qarama-qarshiliklari sinonimlarning emotsional-ekspressiv yuki orqali kuchaytirilgan. Bu esa asarning dramatik kuchini oshirib, obrazlarning tabiiy va jonli chiqishiga xizmat qiladi.



References:

1. Shayxzoda M. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Qo'chqorov A. Stilistika va matn tahlili. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
3. Abduazizov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2006.
4. G'aniyeva M. Nutq madaniyati va uslub. – Toshkent: O'zbekiston, 2004